


“Eng yetuk mashinasozlar” ko‘rik - tanlovi

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yillik munosabati bilan yoshlarning har tomonlama yetuk mutaxassis bo‘lib kamol topishiga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh mutaxassislarni aniqlash, kasbiy mahoratini va bilim darajasini oshirish maqsadida joriy yilning 27 avgust kuni “O‘zagrotexsanoatxolding” AJ hamkorligida institutning konferensiyalar zalida “Eng yetuk mashinasozlar” viktorina ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi.



Bu tadbirdan ko‘zlangan maqsad qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sohasida buyurtmachi talablariga javob beradigan iqtidorli, qobiliyatli mutaxassislarni tanlash, ularni mahoratini oshirish hamda professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalarning yangi qishloq xo‘jaligi texnikalarini mahalliyashtirish jarayonlarida qatnashish, talabalarga ta‘lim olish bilan bir vaqtda ishlash imkoniyatlarini yaratib berishga qaratilgan.



Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov